

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI

Tilovboyeva Mardon Aybekovna

Urganch Innovatsion Universiteti tarix fani o'qituvchisi

Pulatova Nodira Ilhomiddin qizi

Urganch Innovatsion Universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilimga chanqoq bo'lib o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-*u* ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutola qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Boburning san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalarni umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

Kalit so'zlar: Andijon, tarix, sarkarda, davlat arbobi, olim, tarixchi, "Boburnoma", Marv, Balx, Samarqand, xulq-atvor, jamiyat.

Аннотация: В этой статье Захириддин Мухаммад Бабур был человеком, который выделялся среди своих сверстников, жаждал знаний с юности. Как и все принцы Тимуридов, Бабур изучал военное образование, юриспруденцию, арабский и персидский языки под руководством специальных педагогов и великих ученых, прочитал много исторических и литературных произведений, увлекся наукой и поэзией. Артистизм Бабура в том, что он умеет возводить свои личные переживания на уровень серьезного обобщения, и в результате идеи, выдвигаемые в его произведениях, поднимаются до уровня общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: Андижан, история, полководец, государственный деятель, ученый, историк, «Бабурнаме», Мерв, Балх, Самарканд, поведение, общество.

Abstract: In this article, Zahiriddin Muhammad Babur was a person who

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

stood out among his peers, thirsting for knowledge from his youth. Like all Timurid princes, Babur studied military education, jurisprudence, Arabic and Persian under the guidance of special educators and great scholars, read many historical and literary works, became interested in science and poetry. Babur's artistry is that he can raise his personal experiences to the level of serious generalization, and as a result, the ideas put forward in his works rise to the level of universal human values.

Keywords: Andijan, history, commander, statesman, scientist, historian, "Boburnoma", Merv, Balkh, Samarkand, behavior, society.

Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Bobur yurtimiz tarixidagi betakror siymolardan biridir. U nafaqat buyuk yozuvchi, buyuk tarixchi, buyuk olim, balki mohir sarkarda, davlat arbobi ham edi. Uning faoliyati shu sohalar bilan chambarchas bog'liq edi. Uning mustaqil siyosiy faoliyati juda erta boshlangan - otasi Umarshayx Mirzoning kutilmaganda vafot etishi tufayli. O'shanda u endigina 12 yoshda edi. Boburning bobosi Amir Temur davlat poytaxti Samarqandni egallashga bir necha bor uringan. U dastlabki muvaffaqiyatga erishdi. Shunga qaramay, uni qo'lida ushlab turolmadi. Keyinroq u she'rлaridan birida shunday deydi.

Davron meni o'tkardi sari somondin,

Oyirdi meni bir yo'li xonumondin,

Gah boshima toj, gah baloyi ta'ma,

Nelarki, boshima kelmadi davrondin

Boburning yagona maqsadi yirik va mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshdi. Biroq u o'zi tug'ilib o'sgan yurda – Movarounnahrda emas, balki undan ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi. Adibning o'zi bu hodisadan doimo iztirobda bo'lganligi asarlarida juda yorqin tarzda aks etgan:

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishnikи ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bobur bizga o‘zining devonlari, “Boburnoma”, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy falsafiy va axloqyma’rifiy asarlaridan iborat meros qoldirdi. Xoja Ubaydullohning “Risolayi validiya” asarini o‘zbekchallashtirib, musulmon odob-axloqiga oid “Mubayyin” nomli masnaviy yaratdi, “Xatti Boburiy”ni o‘ylab topdi. Bir muddat muqaddam sultanatni Humoyunga topshirgan Bobur 1530-yil 26-dekabrda 47 yoshida vafot etib, o‘zi asos solgan sultanatning poytaxti Agra shahrida vafot etadi va shu yerda dafn etiladi. Keyinchalik 1539-yilda uning vasiyatiga binoan xoki Kobulga keltirilib, o‘zi qurdirgan “Bobur bog‘i”ga joylashtiriladi. Bobur o‘z yurtida O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng haqiqiy qadr-qimmatga ega bo‘ldi. Andijon shahrida universitet, teatr, kutubxona, Bobur nomidagi milliy bog‘ (“Bog‘i Bobur”) bor. Bobur nomidagi milliy bog‘ majmuasida “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabri barpo etildi. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuasida shoir haykali o‘rnatildi. Andijon shahridagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkent shahridagi

ko‘ngilochar bog‘ va ko‘chaga, Andijon viloyati Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur medali ta’sis etildi. 1993-yil 23- dekabrda tashkil etilgan Xalqaro Bobur jamg‘armasi Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘arma ilmiy ekspeditsiyasi tomonidan Sharqning 10 dan ortiq davlatiga ilmiy sayohatlar uyuştirilib, Bobur va boburiylar manzilgohlari, ularning ilmiy merosi haqida yangi ma’lumotlar to‘planib, ilmiy foydalanishga topshirildi. Bu ma’lumotlar asosida 10 dan ortiq ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar, 10 ga yaqin hujjatli va videofilmlar yaratildi. Jamg‘armaning Lahor (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu-Dabi (BAA), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan shaharlarida filiallari mavjud. Bobur o‘zbek xalqi ilm-fani va madaniyati xazinasiga o‘lmas hissa qo‘sghan mutafakkir, olim, tarixchi, huquqshunos va lirik shoirdir. Ilm, san’at, madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanish bo‘lgan uning ijodi, asosan, lirik she’rlari va “Boburnoma” adabiy-tarixiy asari bilan yoritilgan. “Boburnoma” qomusiy kitob bo‘lib, unda tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ma'lumotlar jamlangan.[3]Bobur yana musulmonchilikqoidalari va qonushunoslikka bag`ishlangan "Mubayyin" arab alfavitini isloxiغا oid "Xatti Boburiy", aruz vazni va qofiyaga oid "Mufassal", yana musiqa va harbiy san'at haqida asarlar yozgan.Adib fan va ma'rifatni yuqori darajada qadrlaydi. Ilm, adabiyot, san'at ahllari bilan yaqin aloqada buladi, ularga homiylik qiladi.Ilm va bilimdonlikni ulug`laydi. U kamtarlik, uzini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga yaxshilik qilish sifatlarini ulug`lab, yovuzlik, zulm, qabihlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala vatanga cheksiz muhabbatdir."Boburnoma"da o`zbek, tojik, afg`on, hind va boshqa xalqlarning kasb - kori, urf - odati, madaniyati, dini, adabiti, turmush tarzi haqida keng ma'lumotlar beriladi.Bobur ijodiyoti asosan uning lirik she'rlari va adabiytarixiy asari - «Boburnoma» bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Boburning xotiralaridan tashkil topgan va temuriylar davlatining tanazzulga ketish davrini o'zida ifodalagan, qomusiy xarakterdagi «Boburnoma» kitobi ilmiy-tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda tarix, geografiya, botanika va fanning boshqa sohalariga taalluqli qimmatli ma'lumotlar bor. Qolaversa, bu asar eski o'zbek tilidagi nasrning ilk namunasi va nodir yodgorlik hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiyatlari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalasi esa islam qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Boburning onasi o'qimishli bo'lgan va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergen, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqা boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi. Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so‘fiy — Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va choraszlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494-yil iyun). Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabit etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrga qo‘shin kiritib shayboniylargacha ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabr boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra’yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko‘li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal’asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrnegallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi. Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasi Bobur boshchilidagi hukmron sinf Hindistonga kirib borganda uning tomonidan tashkil etilgan. Imperiya 16-asrning o‘rtalaridan 18-asr o‘rtalariga qadar ancha vaqt mavjud bo‘lib, hozirgi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Afg'onistonning janubi-sharqiy hududlarida faoliyat ko'rsatgan. Shunisi e'tiborga loyiqliki, na Bobur, na Imperiya avlodlari o'zlarini bunday deb nomlashgan. Bu nom ingliz mustamlakachilari tomonidan berilgan. Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyodagi musulmon aholini shunday atashgan. Shoh va shoir, shuningdek, badiiy tarjimalar bilan ham shug'ullangan. Yirik so'fiy, Bahouddin Naqshbandiyning izdoshi Xoji Ahror Valining "Voldiyya" ya'ni "Ota onalar risolasi"ni she'riy ko'rinishga tarjima qilgan. Arab grafikasi asosida "Xatti Boburiy"ni tuzadi. Ushbu grafika asosida muborak Qur'oni karim hamda Boburning shaxsiy asarlari qayta yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnomा. -T.:1960;
2. Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.
3. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
4. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
5. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
6. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz“ asari. -T.:1986;
7. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
8. G'aybullohu as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma“. — T.:1996;